| <b>Rajabova Shaxlo Shodmonovna</b>                                                                                                                                                   |     |
| Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati .....                                                    | 234 |
| <b>Ramazonova Salomat Saidovna</b>                                                                                                                                                   |     |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash .....                                                                                  | 238 |
| <b>Saidova Gulruh Halim qizi</b>                                                                                                                                                     |     |
| O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida) .....                                                   | 242 |
| <b>Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna</b>                                                                                                                                              |     |
| Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников .....                                                                                                                 | 246 |
| <b>Истамова Нигора Азимжановна</b>                                                                                                                                                   |     |
| Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari .....                                                                                    | 249 |
| <b>Xakimova Dildora Mashrabjonovna</b>                                                                                                                                               |     |
| Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов .....                                                                                                  | 253 |
| <b>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</b>                                                                                                                                              |     |
| Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida .....                                                                                             | 257 |
| <b>Rashidova Gulnoza G'ulomovna</b>                                                                                                                                                  |     |
| Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati .....                                                                                     | 261 |
| <b>Xaydarov Sulaymon Amirqulovich</b>                                                                                                                                                |     |
| Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar .....                                                                                                                       | 265 |
| <b>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</b>                                                                                                                                               |     |
| Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari .....                                                                  | 268 |
| <b>Abduraximov Asror Sultonali o'g'li</b>                                                                                                                                            |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari .....                                                         | 271 |
| <b>Adizova Nilufar Quvondiq qizi</b>                                                                                                                                                 |     |
| Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati .....                                                                                                      | 274 |
| <b>Alimov Asadulla Urokbayevich</b>                                                                                                                                                  |     |
| Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri .....                                                                                                        | 278 |
| <b>Alimova Umida Jumaboy qizi</b>                                                                                                                                                    |     |
| Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi ..... | 282 |
| <b>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</b>                                                                                                                                          |     |
| Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi .....                                                                                            | 286 |
| <b>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</b>                                                                                                                                                 |     |
| Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish .....                                                     | 289 |
| <b>Islomova Xafiza Azamatovna</b>                                                                                                                                                    |     |
| Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish .....                                                                                                           | 293 |
| <b>Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi</b>                                                                                                                                        |     |
| Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri .....                                                                                            | 298 |
| <b>Kozimova Nargiza Istam qizi</b>                                                                                                                                                   |     |
| Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili .....                                                                     | 303 |
| <b>Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna</b>                                                                          |     |
| Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv .....                                                                                                                             | 309 |
| <b>Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi</b>                                                                                                                                       |     |



|                                                                                                                     |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari .....                       | 313 |
| <b>Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi</b>                                                                            |     |
| Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari .....                            | 317 |
| <b>Muzaffarova Farida Muxtor qizi</b>                                                                               |     |
| Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda<br>germenevtik metodlarning nazariy asoslari ..... | 321 |
| <b>Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi</b>                                                                              |     |
| Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....                       | 324 |
| <b>Ramazonov Jahongir Djalolovich</b>                                                                               |     |
| Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar .....                                                          | 328 |
| <b>Sadinov Otabek Vaxodirovich</b>                                                                                  |     |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....                                    | 332 |
| <b>Shahobiddinova Zilola Orif qizi</b>                                                                              |     |
| Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri .....                             | 335 |
| <b>Shirinov Otabek Tuvalovich</b>                                                                                   |     |
| Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....                             | 338 |
| <b>Suyarov Kusharbay Tashbayevich</b>                                                                               |     |
| Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati .....                  | 342 |
| <b>Saipova Hilola Abduhamitovna</b>                                                                                 |     |
| "Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....                                                             | 346 |
| <b>Tangirov Zoir Xo'jakulovich</b>                                                                                  |     |
| Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini<br>hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....  | 350 |
| <b>Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li</b>                                                                      |     |
| Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..            | 353 |
| <b>Seytanov Bayrambay</b>                                                                                           |     |



# MUSIQA MAKTABI O'QUVCHILARIDA MADANIY QADRIYATLAR VA USTOZ- SHOGIRD AN'ANALARINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI

Seytanov Bayrambay

O'zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada musiqiy maktab o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustozlik an'analari shakllantirish hamda ularni uzluksiz rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Ustozlikning zamonaviy pedagogik texnologiya sifatidagi ahamiyati, shaxsiy namuna orqali madaniy merosni avlodlar orasida yetkazish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shu jarayon orqali estetik tarbiya, ijodiy muhit va milliy identichlikning shakllanishiga e'tibor qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** madaniy qadriyatlar, ustozlik, musiqiy ta'lim, an'ana, tarbiya, estetika, ijodiy muhit.

**Abstract:** This article analyzes the formation and continuous development of cultural values and mentorship traditions among music school students. It examines the significance of mentorship as a modern pedagogical approach and explores the potential for transmitting cultural heritage from generation to generation through personal example. The process emphasizes aesthetic education, a creative environment, and the cultivation of national identity.

**Key words:** cultural values, mentorship, music education, tradition, upbringing, aesthetics, creative environment.

**Аннотация:** В данной статье анализируются вопросы формирования культурных ценностей и традиций наставничества у учащихся музыкальных школ и их непрерывного развития. Рассматривается значение наставничества как современной педагогической технологии, возможности передачи культурного наследия из поколения в поколение через личный пример. В этом процессе внимание уделяется эстетическому воспитанию, творческой среде и формированию национальной идентичности.

**Ключевые слова:** культурные ценности, наставничество, музыкальное образование, традиция, воспитание, эстетика, творческая среда.

## KIRISH

Musiqiy ta'lim nafaqat ijodiy salohiyatni yuksaltirish, balki shaxsning ma'naviy kamoloti va madaniy dunyo-qarashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayonda ustoz va shogird o'rtasidagi munosabat o'ta muhim rol o'ynaydi. Ustozlik an'anasi orqali shogird nafaqat bilim, balki qadriyatlar, odob-axloq, etika va jamoaviy madaniyatni ham o'zlashtiradi. Milliy madaniyat va an'analari asosida shakllangan ta'lim tizimi bugungi globallashuv jarayonlarida o'z ahamiyatini yo'qotmasligi, balki zamonaviy talablarga mos holda rivojlanishi lozim.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Musiqiy ta'limda madaniy qadriyatlar va ustozlik an'analari rivojlanishini tadqiq etishda mahalliy va xorijiy olimlarning bir qator ilmiy asarlari asos qilib olindi. Jumladan, K.D. Ushinskiy <sup>[1]</sup> va V.A. Suxomlinskiy <sup>[2]</sup> ta'limda shaxsni kamol toptirishda ustoz shaxsiyatining o'rnini belgilab bergan. I.V. Smirnova <sup>[3]</sup> esa zamonaviy musiqiy pedagogikaning an'anaviy va innovatsion yo'nalishlarini tadqiq etgan.

O'zbekistonlik pedagog Q. Qosimova <sup>[4]</sup> milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya modelini asoslab, ustozlikni madaniy merosni uzatish vositasi sifatida ko'radi. Qoraqalpoq bolalar musiqasi bo'yicha tadqiqot olib borgan A. Omarova <sup>[5]</sup> musiqiy ta'lim jarayonida milliy folklor va estetik ongning shakllantirishning ahamiyatini yoritgan.

Z. Hoshimova <sup>[6]</sup> musiqiy maktablarda ijodiy muhit va ustozlik munosabatining milliy identichlikka ta'sirini o'rgangan. Shuningdek, M.S. Kagan <sup>[7]</sup> musiqaning estetik tabiati va ijtimoiy funksiyalarini, B.M. Bim-Bad <sup>[8]</sup> esa ta'limiy jarayondagi madaniy omillarni qamrab olgan. Ushbu manbalar tadqiqotning nazariy poydevorini tashkil etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda kompleks ilmiy usullardan foydalanildi.

*Birinchidan*, tahliliy metod orqali ilmiy va metodik adabiyotlar o'rganilib, mavzu bo'yicha asosiy nazariy yondashuvlar saralab chiqildi.

*Ikkinchidan*, komparativ tahlil orqali milliy va xorijiy musiqiy ta'lim modellari o'rtasidagi umumiy va farqli jihatlar chuqur o'rganildi. Shu asosda ustozlik an'alarining universal va milliy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi.

*Uchinchidan*, empirik usullar sifatida musiqiy maktablar faoliyati, ustoz va shogird munosabatlari, dars va mashg'ulot jarayonlari kuzatilib, tahlil etildi. Ayrim musiqiy maktab o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar o'tkazilib, amaliy ma'lumotlar to'plandi.

Tadqiqot jarayonida induktiv va deduktiv usullar, shuningdek, ta'lim sotsiologiyasi va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan interdissiplinar yondashuv qo'llanildi. Bu esa ustozlik va madaniy qadriyatlar uzviy bog'liqligini har tomonlama yoritish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Madaniy qadriyatlar – bu jamiyatning ma'naviy-axloqiy ustuvorliklari, urf-odatlar, an'analari, estetik ideal-lari va hayot tarziga asoslangan barqaror qadriyatlar tizimidir. Ular shaxsning tafakkuri, xulq-atvori, dunyoqarashi va faoliyatini shakllantiradi. Jamiyatdagi har bir avlod o'zidan avvalgi avlod qoldirgan madaniy merosni qabul qiladi, qayta ishlaydi va keyingi avlodga uzatadi. Bu jarayonda madaniy qadriyatlar nafaqat moddiy, balki ma'naviy shakllarda ham namoyon bo'ladi – masalan, an'anaviy musiqa, xalq kuylari, maqomlar, urf-odatlar, bayram marosimlari va milliy estetika vositalari orqali.

Musiqiy ta'lim esa mazkur qadriyatlarning samarali vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Musiqa orqali farzandlarda estetik ta'lim, milliy hissiyot, xalq ijodiga muhabbat, madaniy identichlik va ma'naviy barkamollik shakllanadi. Bolalar milliy musiqa asarlari orqali xalq hayoti, dunyoqarashi, tarixiy xotirasi va madaniy ramzlarini ang'ay boshlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, ustozlik – bu nafaqat bilim berish, balki madaniy qadriyatlarni, milliy o'zlikni, shaxsiy namuna va falsafani shaxs orqali shogirdga yetkazuvchi tirik ko'prikdir <sup>[1], [2]</sup>. Ustoz shogirdga faqat musiqani o'rgatmaydi, balki uni xalq madaniyatiga bag'ishlaydi, ijodiy merosga ehtirom va mas'uliyat bilan yondashishga o'rgatadi. Uning shaxsiyati, ma'naviy yuksakligi va madaniy bilimi shogird ruhiyatida chuqur iz qoldiradi. Shu bois, har bir ustozning faoliyatida milliy qadriyatlarga suyanagan tarbiya mexanizmi mavjud bo'lishi zarur.

Musiqiy ta'lim muassasalarida ustozlik tizimi nafaqat ijrochilik mahoratini shakllantiradi, balki yosh avlodni shaxs sifatida tarbiyalashda, ularda milliy qadriyatlar va jamoaviy mas'uliyat tuyg'usini uyg'otishda muhim ijtimoiy-pedagogik vazifani bajaradi. Bu tizim an'anaviy madaniyatning uzluksiz rivojlanishi va avloddan avlodga o'tishida fundamental mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Quyida mazkur jarayonni amalga oshiruvchi asosiy mexanizmlar tahlil etiladi:

- **Shaxsiy namuna.** Ustoz shaxsiyati shogird uchun eng ta'sirli omillardan biridir. Uning hayot tarzi, axloqiy pozitsiyasi, madaniy bilimi, musiqiy didi, ijodiy tafakkuri shogird ruhiyatida in'ikos topadi. Bolalar ko'proq aytiladigan nazariy ko'rsatmalarga emas, balki ustozning real xulq-atvori va faoliyatiga tayangan holda ta'lim oladi. Shu jihatdan ustoz nafaqat o'qituvchi, balki shaxsiy ideal, madaniy yetakchi sifatida namoyon bo'ladi [3]. Bu mexanizm "o'rnak orqali o'rgatish" (learning by example) tamoyili asosida ishlaydi.
- **Umumiy ijro amaliyoti.** Shogirdlar konsert, ansambl, orkestr, duet va trio kabi jamoaviy ijro shakllarida ishtirok etish orqali nafaqat ijodiy mahorat, balki jamoaviy mas'uliyat, o'zaro anglashuv va musiqiy hamkorlik tuyg'ularini ham rivojlantiradilar. Ushbu amaliyotlar orqali ularda sahna madaniyati, musiqa vositasida muloqot qilish qobiliyati, estetik ta'lim va psixologik barqarorlik shakllanadi. Shuningdek, ijro amaliyoti shogirdning o'z-o'ziga ishonchi, ichki intizomi va auditoriya oldida o'zini tutish salohiyatini oshiradi.
- **Merosxo'rlik (ta'limiy merosning uzluksizligi).** Ustozlik tizimining eng muhim xususiyatlaridan biri – ta'limiy an'ananing uzluksizligidir. Shogird vaqt o'tishi bilan mutaxassis sifatida shakllanib, keyinchalik o'zi ham ustozga aylanadi. Bu jarayon "ustoz-shogird-ustoz" tartibida siklli ravishda davom etadi. Bu mexanizm milliy musiqiy maktablarning tabiiy qayta ishlab chiqarish tizimini ta'minlaydi va an'anaviy madaniyatning uzluksizligini kafolatlaydi. Shogird o'z ustozidan olgan bilimni shaxsiy tajriba bilan boyitgan holda keyingi avlodga uzatadi.
- **Madaniy muhit.** Musiqiy ta'lim muassasasida ustozlikning samaradorligida umumiy ijodiy va ma'naviy muhit muhim ahamiyatga ega. Maktabning ichki muhitida milliy musiqa, folklor, an'analari, xalq kuylari



va madaniy tadbirlar doimiy ravishda mavjud bo'lsa, shogird ushbu muhitni tabiiy ravishda qabul qiladi. Musiqiy ko'rgazmalar, ijodiy uchrashuvlar, ustoz va shogird o'rtasidagi do'stona muhokamalar, noformal muloqotlar shogirdning ijtimoiy ongi va estetik tafakkurini boyitadi. Bu muhit shogirdga milliy madaniyatga daxldorlik, o'zligini anglash va xalq merosiga muhabbat uyg'otadi.

- **Integrativ yondashuv.** Zamonaviy musiqiy ta'limda an'anaviy ustozlik mexanizmlari axborot texnologiyalari, raqamli resurslar, multimediali darslar bilan uyg'unlashtirilmoqda. Bu orqali madaniy qadriyatlar yanada ko'proq shogirdlarga yetkaziladi. Onlayn master-klasslar, virtual muzeylar, arxiv kuylarni tinglash imkoniyati shogirdlarning dunyoqarashini kengaytiradi va ustozlik munosabatlarini yanada boyitadi.

Madaniy qadriyatlar va ustozlik an'alarini mustahkamlash uchun quyidagi yondashuvlar tavsiya etiladi:

1. **Pedagogik yondashuvni qayta ko'rib chiqish.** Ustoz nafaqat o'qituvchi, balki madaniy yetakchi sifatida qaralishi kerak.
2. **Metodik ta'minot.** Dars dasturlariga milliy meros, folklor, milliy musiqa namunasi va sharhlari kiritilishi kerak.
3. **Ota-onalar bilan hamkorlik.** Oilaviy qadriyatlar bilan maktab qadriyatlari uyg'un bo'lsa, ta'sir ikki baravar kuchli bo'ladi.
4. **Targ'ibot va ommaviy tadbirlar.** Festivallar, konsertlar va ijodiy uchrashuvlar bolalarda milliy g'urur va faxr tuyg'usini uyg'otadi.

## XULOSA

Madaniy qadriyatlar va ustozlik an'alarini saqlash hamda rivojlantirish – har bir ta'lim muassasasi-ning ustuvor vazifasidir. Musiqiy maktab bu borada yuksak imkoniyatlarga ega. An'analarga tayangan holda zamonaviy yondashuvni integratsiya qilish yosh avlodni nafaqat bilimli, balki ma'nan boy shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Москва: Педагогика, 1988.
2. Сухомлинский В.А. Сердце отдаю детям. Москва: Просвещение, 1985.
3. Смирнова И.В. Музыкальная педагогика: традиции и новаторство. Санкт-Петербург: Композитор, 2019.
4. Qosimova X., Karimova G. Ma'naviyat va milliy tarbiya // Экономика и социум. 2022. №3-2 (94). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/manaviyat-va-milliy-tarbiya> (дата обращения: 18.06.2025).
5. Омарова А. Применение педагогических технологий в преподавании теории каракалпакской музыки // Интернаука. 2021. №6-1. С. 52-53.
6. Hoshimova Z. Bolalar musiqiy ta'limida milliy an'analarning o'rni // Pedagogika va psixologiya. №4. Toshkent, 2020.
7. Каган М.С. Музыка как вид искусства. Ленинград: Искусство, 1986.
8. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. Москва: Большая Российская энциклопедия, 2002.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.